

**“O‘ZBEKISTONDA JAHON SAVDO TASHKILOTIGA
A‘ZOLIKNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHGA
TA‘SIR MEXANIZMLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO
MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN**



2026-yil 5-may kuni Perfect-universityda “Iqtisodiyot va turizm” kafedrasida tashkil qilayotgan “O‘zbekistonda Jahon savdo tashkilotiga a‘zolikning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta‘sir mexanizmlari” mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda (keyingi o‘rinlarda – anjuman) ishtirok etish uchun mamlakatimiz hamda xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, amaliyotchi mutaxassislar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar va talabalar taklif etiladi.

Anjumanni o‘tkazish muddati, joyi va tartibi: 2026-yil 5-may kuni Perfect-university, Anjumanlar zali (onlayn va oflayn formatda).

Anjuman tili: o‘zbek, rus, ingliz tillari.

Anjuman ishtirokchilariga elektron PDF va qog‘oz ko‘rinishida sertifikat taqdim etiladi. Anjuman materiallari to‘plami elektron va bosma shakllarda nashr etiladi.

Anjuman maqsadi

O‘zbekistonda Jahon savdo tashkilotiga a‘zolikning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta‘sir mexanizmlari, xususan iqtisodiyot sohasidagi milliy tizimni xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalar asosida rivojlantirish masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda moliya bozorining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish, sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish, risklarni samarali boshqarish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni

ta'minlashning zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu asosda, JSTga a'zolik sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, milliy iqtisodiyotning xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Anjumanning yo'nalishlari:

03

1-sho'ba: O'zbekistonda iqtisodiyot va turizm sohalarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri;

2-sho'ba: Iqtisodiyot sohalarida zamonaviy texnologiyalar hamda raqamli yechimlarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish;

3-sho'ba: Milliy iqtisodiyot infratuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish yo'nalishlari va institutsional islohotlar;

4-sho'ba: Yangi O'zbekistonda iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish istiqbollari: Jahon savdo tashkiloti talablari va ilg'or xalqaro tajribalar.

Anjumanning vazifalari

04

O'zbekistonda iqtisodiyot va turizm sohalarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri

- iqtisodiyot va turizm sohalarida xalqaro standartlarni joriy etishning yalpi ichki mahsulot, bandlik va investitsiya faolligiga ta'sirini tahlil qilish;

- turizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Iqtisodiyot sohalarida zamonaviy texnologiyalar hamda raqamli yechimlarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish

- Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligi hamda xizmatlar sifatiga ta'sirini baholash.
- Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo'llarini aniqlash.

Milliy iqtisodiyot infratuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish yo'nalishlari va institutsional islohotlar

- Transport, logistika va xizmatlar infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish.
- Institutsional islohotlar va davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali infratuzilma salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish istiqbollari: Jahon savdo tashkiloti talablari va ilg'or xalqaro tajribalar

- Jahon savdo tashkiloti talablari doirasida iqtisodiyot va turizm sohalarining rivojlanish istiqbollari baholash.
- Ilg'or xorijiy tajribalar asosida iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Anjumanga taqdim etiladigan materiallarga qo'yiladigan talablar:

05

- Ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga qamrab olgan, tahrir qilingan maqola va tezislari (materiallar) 3-6 bet hajmda taqdim etilishi mumkin. Materiallar xalqaro talab darajasidagi IMRAD shaklida yozilishi lozim.
- Materiallar Microsoft Word 1997-2003, Times New Roman 14 shriftida,

qatorlar orasi 1,5 intervalda, chap tomondan 3 sm, o'ng tomondan 1,5 sm, yuqori va past tomondan 2 sm qoldirilgan holda to'ldirilishi shart.

- Barcha havolalar (snoska) [1,25] shaklida berilishi zarur.
- Taqdim qilingan fayl nomlari lotin harflarida birinchi muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, materialning birinchi va ikkinchi so'zlaridan bo'lim raqami ko'rsatilgan holda tuziladi. (Masalan, Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna. 1-sho'ba: O'zbekistonda iqtisodiyot va turizm sohalarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri doc. formatda).
- Material birinchi sahifasining yuqori o'ng tomonida muallifning to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, lavozimi, tashkilot yoki oliy ta'lim muassasasining nomi ko'rsatilishi shart.
- Materialda foydalanilgan manbalar aniq ko'rsatilishi lozim.
- Hammualliflar soni 3 tadan oshmasligi kerak.
- Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan materiallar to'plamga kiritilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Materiallar mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi zarur:

- Annotatsiya. Kalit so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida);
- Kirish;
- Adabiyotlar tahlili;
- Tadqiqot usullari;
- Tahlil va natijalar;
- Xulosa;
- Foydalanilgan manbalar.

Qo'shimcha ma'lumotlar

06

Anjuman materiallari elektron ilmiy to'plam shaklida 2026-yilning may oyida shakllantiriladi. Materiallar o'zbek, rus va ingliz tillarida 2026-yil 30-aprelgacha quyidagi manzillar bo'yicha qabul qilinadi:

Iqtisodiyot:

telegram: @khojiakbar_kuchkarov

tel: +998941631631

Turizm:

telegram: @TohiraXadicha

tel: +998907070009



TAQDIM QILINGAN MATERIALLARDA KELITIRILGAN MA'LUMOTLAR ASOSLI VA TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR MAS'UL HISOBLANADI. MATERIALLAR TAHRIR HAY'ATI TOMONIDAN KO'RIB CHIQLADI VA QO'YILGAN TALABLARGA MOS KELMAGAN MATERIALLAR CHOP ETILMAYDI.

MUROJAAT UCHUN MANZIL: TOSHKENT SHAHRI, ZARQAYNAR KO'CHASI 6/1-UY, "IQTISODIYOT VA TURIZM" KAFEDRASI.